

XITOIY TILINI O'QITISHDA HSK 5 IMTIHONINING O'QISH QISMIDAN MUVAFFAQIYATLI O'TISHNING ENG YANGI STRATEGIYALARI

Ch. Hamdamova¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada xitoy tilini o'qitishda HSK 5 darajasidagi o'qish ko'nikmasini shakllantirish, shuningdek, ushbu maqsadga ta'sir qiluvchi jihatlar, mamlakatimiz hududidagi HSK 5 imtihonini topshirish istagida bo'lgan talabgorlar tomonidan aksariyat hollarda yo'l qo'yiladigan xatoliklari hamda ularni bartaraf etish yo'llari va ularning samarali usullari o'zbek va xitoy tillaridagi misollar yordamida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: HSK 5, o'qish ko'nikmasi, innovatsion usullar, eng yangi strategiyalar.

doi: <https://doi.org/10.2024/kjgdt612>

HSK 5 o'qish imtihonining ikkinchi qismida esa o'rtacha 130 ta belgidan iborat bo'lgan matn taqdim etilib, talabgor matn yuzasidan o'zining qisqacha xulosasini matnni birgina jumla orqali ifodalashlari lozim. Ikkinchi qism ham xuddi birinchi qismdagi singari talabgorda bir qancha qiyinchilik tug'dirishining asosiy sababi esa, taqdim etilayotgan javoblarning 2-3 tasida matnda keltirilgan jumlaning aynan o'zi keltirilishi, qolgan variantda esa matnning 60-70 % mazmunini o'zida mujassam etgan javob variant berilishidadir.

Ikkinchi qism birinchi qismdan farqli o'laroq, 10 ta savolni o'z ichiga olib, bu qismda talabgorning o'qish qobiliyatini sinashga qaratilgan talablar birmuncha oshadi. Ya'ni agar agar talabgor HSK 4 imtihonida bir daqiqada 70 ta belgili matnni o'qishi lozim bo'lgan bo'lsa, HSK 5 ga kelib, bu talab deyarli 2 karra oshadi, talabgor bir daqiqada 130 belgili matnni o'qishi lozim bo'ladi. Masalan, 61 savoldagi quyidagi matnni o'qiymiz:

从1995年开始，学校每年举行一次演讲比赛，到现在已经是第15届了。今年的比赛定在下周六，对于这场比赛，我非常把握，我要争取发挥出最好水平，你们就等我的好消息吧。

- A 比赛安排在周六下午 B 我每年都参加这个比赛
C 我对这次比赛很有信心 D 这场比赛的水平不是很高

Ushbu matndan anglashilayotgan mazmun ushbu musobaqaning ma'lum bir tarixga ega ekanligi, har yili bir marta tashkil etilishi to'g'risidagi xabarlardan iborat bo'lsa – da, uning qoq markazida “我非常把握，我要争取发挥出最好水平，你们就等我的好消息吧” jumalari yotadi. Ya'ni “men” bu yilgi tashkil etilayotgan musobaqada bor imkoniyatlarimni sinab ko'rmoqchiman, menING yaxshi xabarlarimni kuting jummlaridan kelib chiqib, C javobiga to'xtalamiz.

¹ Hamdamova Charos Hamdamovna, Samarqand davlat chet tillar instituti, Yaqin sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi

Yuqoridagi misoldan shuni xulosa qilish mumkinki, o`qish ko`nikmasidagi matnning mazmuniga qarab uni atigi birgina jumla orqali izohlash talabgordan boy leksika va uzoq vaqt talab etiladi. Biroq ma`lum bir texnikalar orqali talabalarimiz orasida eng ko`p uchraydigan va ular tomonidan eng ko`p yo`l qo`yiladigan quyidagi xatoliklarni oldini olish mumkin:

1. Markaziy jumlaning qidirmaslik;
2. Jummalarni bittalab tarjima qilib, ma`nosini bir – biriga ulab chiqish;
3. Ma`nodosh olmoshlarga e`tibor bermaslik yoki noto`g`ri tushunish.

Yuqoridagi xatoliklarga yo`l qo`ymaslik va vaqtdan unumli foydalalanish maqsadida manashu turdagi savollarga quyidagi texnikalarni tavsiya etish o`rinli:

1. Birinchi va so`nggi jumlaning diqqat bilan o`qish. Sababi nisbatan ko`p belgidan tashkil topgan matnning bir daqiqaning ichida o`qib tahlil qilish imkonsiz, yuqorida tilga olingan markaziy jumlagacha esa birinchi yoki so`nggi jumla tarkibida yana bir bor urg`u beriladi. Yoki yana bir bor tilga olinadi yoki so`nggi jumlada xulosa o`rnida umumlashtiruvchi gap sifatida paydo bo`ladi, xuddi yuqoridagi 61 – savolda markaziy jumla va so`nggi umumlashtiruvchi gap yonma – yon kelgani singari.

2. Taqdim etilgan javoblar orasidan eng umumlashtiruvchi, xulosalovchi jumlaning topish. Tanishtiruvchi, tavsiflochi jumla shular jumlasidandir.

Matnning o`qib chiqishdan oldin, taqdim etilayotgan javob variantlariga nazar solish variantlar orasidan eng maqbulini tanlashga xalaqit qilmaydi. Bu o`rinda talabgor javoblar orasidan yuqorida tilga olingan xarakterdagi jummalarni tanlab belgilab qo`yishi lozim. Ayniqsa, ilm – fan, tabiat, tabiiy boyliklar to`g`risidagi keltiriladigan matnlar tarkibida bu usul aynan qo`l keladi.

3. Bir – biriga ma`nodosh bo`lgan so`zlarning o`rnini almashtirib qo`llanilgan holatlarga e`tiborli bo`lish. Aksariyat holatlarda matnlarda jumla yoki undagi kalit so`zlar to`g`ridan – to`g`ri o`zi qo`llanilmaydi. Ayniqsa to`g`ri javob sifatida berilgan variantda. Bunday holatlarda, odatda, matn va to`g`ri javobda kalit so`z yoki jumlaning ma`nosi saqlangan holda uning ekvivalentidan foydalanilgan bo`ladi. Xuddi yuqoridagi 61 – savolning matnida “有把握” hamda to`g`ri javobdagi “有信心” birikmalari qo`llanilganidek. Shu bilan birga so`nggi “等我的好消息” – mening yaxshi xabarimni kuting, jumlasini orqali “bu safarigi musobaqa bo`lgan ishonchimning yuqori”ligi yana bir bor ta`kidlanayapti.

References:

- [1]. 刘超英等编著, 新HSK5级速成强化教程 – 北京语言大学出版社 · 2013.5
- [2]. Рыжко Екатерина Борисовна. "Единый государственный экзамен по китайскому языку и международный экзамен hsk: общие черты и ключевые различия" педагогические измерения, no. 2, 2020, pp. 65-71.
- [3]. <https://studycli.org/zh-CN/hsk/the-new-hsk/>